

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning “Risolai havroiyya” asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi “Dehqon” jurnalining tarixi 229

O’Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma’naviy tarbiyaning ta’siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyyarat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o’ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta’lim-yangi O’zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya’qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta’lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g’arb ta’lim falsafalarining o’zaro ta’siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta’minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma’naviy – ma’rifiy islohotlarning dolzarbliji 302

M.G’anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o’rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O’zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasini yordamida tahlil qilish 311

JAMIYATDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING SHAXS EKOLOGIK MADANIYATI YUKSALISHIDAGI ROLI

РОЛЬ СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕСТВЕ В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ

THE ROLE OF CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM IN THE SOCIETY IN THE IMPROVEMENT OF PERSONAL ECOLOGICAL CULTURE

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich¹

¹Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

— Farg'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson va tabiat munosabatlari tizimida ekologik ta'limga rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, ekologik ta'limga yuksaltirish asosida ekologik ongli faoliyatni shakllantirishning ustuvor vazifalari tahlil qilingan. Ijtimoiy-ekologik muammolar yechimida zamonaviy innovatsion yondashuvlari bilan bir qatorda mahalliy aholining tabiatdan foydalananish an'analariga asoslangan ekologik yondashuvning ahamiyati ilmiy asoslangan. Ekologik madaniyatga doir ta'limga tarbiya va targ'ibot-tashviquot ishlari faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda o'zbek xalqi ekologik qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish tendensiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish imkoniyatlarining nazariy metodologik va amaliy jihatlarini chuqurlashtirishga oid ilmiy xulosalar berilgan.

Аннотация

В данной статье исследуется социальная значимость развития экологического образования в системе взаимоотношений человека и природы. Также проанализированы приоритетные задачи формирования экологически сознательной деятельности на основе совершенствования экологического образования. Наряду с современными инновационными подходами в решении социально-экологических проблем научно обосновано значение экологического подхода, основанного на традициях природопользования местным населением. Помимо совершенствования деятельности по воспитанию и пропаганде экологической культуры, даются научные выводы относительно разработки научно-теоретических основ тенденций восстановления и развития экологических ценностей узбекского народа и углубления теоретического, методологические и практические аспекты возможностей развития.

Abstract

In this article, the social importance of the development of environmental education in the system of relations between man and nature is studied. Also, the priority tasks of forming ecologically conscious activities based on improving environmental education were analyzed. Along with modern innovative approaches in the solution of socio-ecological problems, the importance of an ecological approach based on the traditions of the use of nature by the local population is scientifically based. In addition to the improvement of the activities of education and promotion of ecological culture, scientific conclusions are given regarding the development of the scientific and theoretical foundations of the tendencies of restoring and developing the ecological values of the Uzbek people and deepening the theoretical, methodological and practical aspects of the possibilities of development.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ongli faoliyat, ekologik muammolar, oqilonalik, tabiyat va jamiyat munosabatlari tizimi, ijtimoiy mas'uliyat, ekologik ong, ijtimoiy ekologiya.

Ключевые слова: экологическая культура, экологически сознательная деятельность, экологические проблемы, рациональность, система отношений природы и общества, социальная ответственность, экологическое сознание, социальная экология.

Key words: ecological culture, environmentally conscious activity, ecological problems, rationality, system of nature and society relations, social responsibility, ecological consciousness, social ecology.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'limga sohasida amalga oshirilayotgan izchil va uzluksiz, innovatsion o'zgarishlar ekologik islohotlarni amalga oshirishni ham taqozo etadi. Malakali kadrlarni tayyorlash sohasidagi islohotlar butun jahon andozalariga mos ravishda ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. O'zbek xalqi ajdodlar milliy merozi va qadriyatlar, an'analar, urf-odatlariga tayanib tabiatga munosabat madaniyatini shakllantirgan. Jahondagi yetakchi ilmiy markazlar va universitetlarda xalqlar etnoekologiyasi, etnoestetik munosabatlarining tabiat va inson munosabatlarini uyg'unlashtirish, ekologik ong va madaniyatning jamiyatda aks etishi masalasi bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda 60 mln aholiga ega Markaziy Osiyodagi eng katta muammolardan biri – Orolning qurishi hisoblanadi. Bu hududning barqaror ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishi, aholining salomatligi

uchun xavf solmoqda[16]. Shu sababli respublikamizda ekologik madaniyatga doir ta'lif-tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlari faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda o'zbek xalqi ekologik qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish tendensiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish imkoniyatlarining nazariy metodologik va amaliy jihatlarini chuqurlashtirish, asoslash obyektiv zarurat hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son Farmoniga binoan 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarorida mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida aniq vazifalar belgilab berildi[17]. Ushbu tarixiy hujjatda aholining ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining shaffoflik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish, O'zbekiston yoshlar ittifoqining O'zbekiston Ekologik partiyasi bilan birgalikda yoshlarda atrof muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni madaniyatini yuksaltirish, tabiiy resurslarni himoyalash, havo, suv va tuproq ifloslanishiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ziyon yetkazilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan jarayonlarni yana-da jadallashtirish vazifalari belgilangan.

Respublikamizda barqaror ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda mavjud tabiiy resurslardan ilmiy asosda foydalanish, har bir hududning tabiiy sharoitiga hamda shakllangan an'analariga mos keladigan va ularning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga sharoit yaratadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini oqilona boshqarishda bo'lg'usi kadrlarning ekologik madaniyatni muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Zero, kelajak yuqori malakali mutaxassislarning ma'naviy madaniyatni darajasiga bevosita bog'liqdir. «O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da «atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish»[1] yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, aholining tabiatdan foydalanish tajribalari asosida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy-ekologik muammolarni yechimiga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ayniqsa, ta'lif tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda yosh avlod, xususan bo'lg'usi magistr va bakalavrarda ekologik madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, jumladan, Parij bitimi majburiyatlarini bajarilishini maqsadida 2019-yil 4-oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori qabul qilindi.

Ushbu Strategiyadan ko'zlangan maqsad mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining atmosferaga tarqalish darajasini pasaytirishga, ekologiya barqarorligini ta'minlovchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy e'tibor energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirish, iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilganligini kuzatish mumkin.[2]

Ekologik muammolarni kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, ekologik tanglikni bartaraf etish masalalarini tadqiq qilish jahon ilmiy-pedagogik va falsafiy jamoatchiligi e'tiborini doimiy ravishda jalb etib keladi. Xususan, xorij olimlari J.Session – insoniyatning tabiiy jarayonlarga aralashishining falsafiy mohiyatini, B.Kommoner – zamonaviy texnologiya va mulkchilikning tabiat boyliklariga zarar yetkazishi masalasini, A.Pechchei insonning haqiqiy gumanist, zamonaviy kishi bo'lishi uchun tabiatni muhofaza qilishi zarurligini, A.Shveyser «ekologik etika» muammosini, A.Niss «radikal ekologizm» tushunchasini, A.Ursul – ekologik muammolarning xavfsizlik va barqarorlikka bog'liqligini ilmiy asoslagan. Fanga etnoekologiya (yunoncha ethnos – xalq, oikos – uy, boshpana, logos – so'z, ta'lifot) atamasini kiritgan. G.Konklin (1954), I.I.Krupnik (1989), R.F.Its (1991), I.Jabborov (2008) hamda R.Balliyeva (2003) kabi jamiyatshunos olimlar etnoekologiyaga keng ma'noda turli etnoslarning tabiat bilan o'zaro aloqasini, undan foydalanishdagi an'anaviy madaniyatni o'rganuvchi, chuqur predmetlararo asosga ega bo'lgan ilmiy yo'nalish sifatida qaraydilar[6].

MDH mamlakatlari faylasuf olimlaridan N.Abayev, K.Gerasimova, A.Jeleznov kabilar xalq ekologik madaniyatni va an'analarini, N.Moiseyev «ekologik imperativ» g'oyasini, A.Sichev – inson tabiatga ma'naviy mas'ulligining tarixiy transformatsiyasini, V.Volchenko – XXI asr dunyoqarashi va

FALSAFA

ekoetikasi shakllanishida fan, falsafa hamda din aloqadorligini, A.Abuzaid – etikaning ekologik funksiyalarini, K.Yermilov – texnogen sivilizatsiya ekologiyasiga oid turli yo'nalishlarda tadqiqot olib borganlar. Ulardan D.Kalabuxov[7] — ekologik madaniyatning madaniy-antropologik asoslarini va uni hayotga tatbiq etishning shart-sharoitlari masalasini tadqiq qilgan.

Ekologik madaniyatning metodologik, ijtimoiy-pedagogik, falsafiy-pedagogik, madaniy-axloqiy masalalari A.K.Aymatov[8], T. Qo'yiliyev[9], S.Davletov, X.A.Djurakulov, B.N.Omonov, M.Primov, S.S.Sanginov, A.T.Quldoshev, N.H.Hakimov kabilarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan[10].

MUHOKAMA VA NATIJA

Strategiyada belgilangan birinchi ustuvor yo'nalish bo'yicha iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini 2030-yilga qadar 2 baravar oshirish vazifasi qo'yilgan. Jumladan, ushbu maqsadga sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yana-da keng foydalanish hisobiga energiya samaradorligini 20%dan kam bo'limgan miqdorga oshirish, motor yoqilg'isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash, elektr transportni rivojlantirish hisobiga erishish rejalashtirilgan.

Ijtimoiy-ekologik muammolar yechimida zamонави innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda mahalliy aholining tabiatdan foydalanish an'analariga asoslangan ekologik yondashuvning ahamiyati haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday yozadi: «Xalqlarimizning tabiatga uning boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda bo'lish va umumiyl suv resurslaridan birqalikda foydalanish borasida ko'p asrlik an'analariga suyangan holda biz haqiqatan ham ulkan natijalarga erishamiz»[3]. Buning asosiy omillaridan biri esa oliy o'quv yurtlari talabalarida ekologik muammolarga qaratilishi lozim bo'lgan umumundoqarash malakasini shakllantirishdir. Hozirda oliy o'quv yurtlari dasturlari ekologiya predmetini yaxlit, fikrlashning ekologik uslubini, ekologik dunyoqarashni qaror toptirishga va shu asosda talabalarning egallaydigan kasblari bilan bog'liq maxsus ekologik tayyorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim»[4].

Ilmiy falsafiy mavzudagi adabiyotlarda etnoekologiya ekologiya boshqa fanlardan farqli o'laroq, «aniq belgilangan obyektga emas, balki hozirgi barcha bilimlar va umuman madaniyatga yo'g'rilib ketgan. Shu bois uni alohida fanlar doirasida o'qitish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mazkur o'ziga xos umumilmiy yondashuvdan maqsad o'rganilayotgan har qanday obyekt va uni o'rabi turgan muhitning o'zaro aloqalarini o'rganishdir. Shunday qilib, ekologik fanlarning xususiyati ularning metodologik o'ziga xos yo'nalgaligidadir. «Ekologik fanlar tizimli monitoringsiz, empirik va ilmiy asoslangan kuzatuvlarsiz mavjud bo'la olmaydi. YUNESKOning «Inson va biosfera» Dasturiga muvofiq ekologik monitoring deganda kuzatuvlarning majmuaviy tizimi, biosfera holatining tabiiy va antropogen omillar ta'siri ostidagi o'zgarishlarining bahosi va bashorati tushuniladi»[5].

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida oliy o'quv yurtlarida talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirish hamda yuksaltirish uchun, fikrimizcha, ekologik ta'lim va tarbiyaning yaxlit tizimli jarayonidan tashqari umumnazariy darajada alohida fanni o'qitish zaruriyat vujudga keldi. Tabiat to'g'risida umumiyl tasavvur beruvchi bu fanlar ekologik dunyoqarashni qaror toptirish, barcha tabiiy va ijtimoiy hodisalarning uzviy o'zaro aloqasini olib berish imkoniyatiga ega. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, shaxs ekologik dunyoqarashni shakllantirishda akademik litsey, kasb hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar ham alohida rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham, mamlakatimizda barqaror ekologik vaziyatni, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muhim subyektiv omili bo'lgan shaxs ekologik madaniyatini yana-da yuksaltirishga e'tibor qaratilmoqda.

Ekologik madaniyat bo'lajak mutaxassisning tabiatga oqilona munosabatda bo'lishining rivojlanish darajasini ko'rsatadi va aniq tashkil etilgan bilimlilik simbiozini, tabiiy jarayonlarni baholash va tartibga solish, bu boradagi har qanday vazifaga ijodiyl yondashish va aniq yo'naltirilgan maqsadga muvofiq ravishda vaziyatga ko'ra harakat qilib, o'z rejasini amalga oshirishni ifodalaydi. Talabalar ekologik madaniyatni tabiatga estetik va aksiologik munosabatda bo'lishni ham nazarda tutadi. Talabalar ekologik madaniyatining asosiy, bir-biriga bog'liq tizimli tarkibiy qismi ehtiyojga asoslangan, kognitiv, tashkiliy-faoliyatga oid va ergonomik jihatlarini tadqiq etish uzliksiz jarayon hisoblanadi. Shuningdek, talabalarning ekologik madaniyat elementlariga bo'lgan talabalarini inobatga olgan holda, ularni tiklash va rivojlantirishga e'tibor qaratish, talabalarini ulardan bahramand qilishda madaniy muassasalarni keng jalg qilish, ekologik ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqu olib borishning institutsional tizimini takomillashtirish, ularni sifat jihatidan yuqori bosqichga chiqarishning zamонави jihatlari olib berilgan.

«Tabiat – inson – jamiyat – madaniyat – sivilizatsiya» tizimidagi o'zaro aloqalarni kuzatish ekologik muammolarni ham qamrab olib oshirishni institutsional tizimini takomillashtirish, ularni sifat jihatidan yuqori bosqichga chiqarishning zamонави jihatlari olib berilgan.

zamonaviy mutaxassis shaxsining, uning fuqarolik fazilatlarining qaror topishida katta ahamiyat kasb etadi, faol hayotiy pozitsiyaning vujudga kelishiga ko'maklashadi[11].

Texnika oliv o'quv yurtlaridagi maxsus fanlar o'qituvchilari texnika bo'yicha kasbni egallaydigan bo'lajak mutaxassislarining ekologik tayyorligi uchun alohida mas'uliyatga egadirlar. Bugungi kunda sodir bo'lib turgan ekologik kataklizmlarning amalda barchasi texnogen omillarga bog'liq[12]. Oliy ta'limgagi islohotlar jarayonida texnika oliv o'quv yurtlari dasturlariga soha ekologiyasi bo'yicha maxsus kurslar kiritildi va ularda tegishli kasblardagi faoliyatning ekologik tavsiflari to'g'risida so'z yuritiladi[13]. Ayni paytda mamlakatimizda qabul qilingan milliy ta'lim dasturi malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan hamda xalqaro talablarga javob beradi. Biroq yoshlarda yuksak ekologik madaniyatni shakllantirish mezonlari talablari muayyan darajada javob bermaydi. Tadqiqotchi X.T.Tursunov, T.U.Raximova tomonidan chop qilingan "Ekologiya" o'quv qo'llanmasida ekologiyaning ma'nnaviy-axloqiy masalalari e'tibordan chetda qolgan. O'quv qo'llanmada ekologik xavfsizlik va barqaror taraqqiyotning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari batafsil yoritilgani holda, ekologik madaniyatning eng asosiy komponenti bo'lgan ekologik axloq masalalari rejaga kiritilmagan[14]. Bunda ekologik muammo asosiy fanlar doirasidan tashqarida qolib ketmoqda. Maxsus fanlarga ekologik muammolarni bevosita singdirish maqsadida bu fanlarga ajratilgan akademik vaqtini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv texnik ixtisosning ekologiya bilan uzviy aloqasini nisbatan to'laroq ochish hamda ekologik bilim va ko'nikmalarini kasbiy malakaning muhim qismiga aylantirish imkonini bergen bo'lardi.

Talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirish barcha fanlarga daxldordir. Madaniyatning bir qismi bo'lgan dunyoqarash olamni ma'nnaviy-amaliy o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. Talaba o'quv dasturlarida belgilangan bilimlar yig'indisini egallabgina qolmay, balki ularni mustaqil to'ldirish ehtiyojini ham egallagan, mustaqil ishlash ko'nikmalarini ham o'zlashtirgan bo'lsagina o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishilgan deb hisoblash mumkin. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishi mavzusiga ekologik muammolarni kiritish mutaxassisning ekologik madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, hozirgi davrda mamlakatimizdagи barcha oliv o'quv yurtlarida, talabaning ekologik madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish uchun, yetakchi faylasuf olimlar hamda faol talabalar rahbarligida ekologik markazlar ochish uchun barcha sharoit mayjud.

XULOSA

Oliy o'quv yurtlari talabalarining ekologik madaniyatni shakllantirish hamda yuksaltirish tizimi davom etadigan jarayondir. Oliy o'quv yurti bitiruvchisi umumiy va xususiy tartibdagi ekologik bilim bo'yicha ilmiy asoslangan axborotlarga, ekologik ongni shakllantirish va yuksaltirish bilan bog'liq asosiy dunyoqarash prinsiplarini o'zlashtiradi, bu yo'nalishda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shaxs ma'nnaviy madaniyatining ekologik tarkibi insonning butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Ushbu jarayon tizimlashishining asosiy yo'nalishi insonning mehnat va turmush munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Oliy malakali mutaxassis ekologik muammolar bo'yicha fikrlash uslubiga ega bo'lishi lozim. Bunday ijtimoiy talabaning o'z ijodi, intellektual imkoniyatini:

- mustaqil ijodiy ishlari, faoliyati obyektini atrof muhit bilan ekologik aloqada ko'rish;
- o'z faoliyati natijasi keltirishi mumkin bo'lgan ekologik oqibatlarni empirik usullar asosida kuzatish;
- faoliyatining ta'sir obyektlarini ekologik vaziyatni takomillashtiradigan, yumshatadigan yoki, atrof muhitga yetkaziladigan zararni eng kam darajaga tushiradigan tarzda o'zgartirish singari qoidalarga bo'ysundirish lozimligini bildiradi.

Bu qoidalalar ish natijalariga qo'yilgan shunchaki joriy talab bo'lib qolmasligi lozim. Ular mutaxassis uchun tabiiy resurslardan samarasiz foydalanishga qarshi bo'lgan axloqiy normalarga aylanishi kerak. Bunda birinchidan, jamiyat oliv ma'lumotli mutaxassisni tayyorlab, yuqori malakali professionalga ega bo'lishgagina emas, balki jamiyat umum madaniyatini, shu jumladan tizim sifatidagi umuminsoniy madaniyatning eng muhim jihat – ekologik madaniyatni ham yuqori darajada egallagan shaxsga ega bo'lish nazarda tutiladi. Zero, jamiyatda shaxs intellektual qobiliyatiga, reflektiv imkoniyatiga asoslanuvchi ijtimoiy-biologik individuallikni, tabiiy qobiliyatlarini nazariy bilim, amaliy ko'nikma, mahoratga aylantirishda tizimli faoliyat olib borish amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, ekologik ta'lim va tarbiya jarayoni, uning obyekti inson botinidagi tabiiy va ijtimoiy aloqalar tizimi, ya'ni uning ichki ma'nnaviy ekologik dunyosini shakllantirishdir[15]. Shu ma'noda ekologik ta'lim va tarbiya tizimi ekologik inqirozlarning tub sabablarini jamiyatning texnik-tehnologik rivojlanishida emas, balki shaxs ma'nnaviy inqirozi bilan bog'liqligini ta'kidlashdan iborat.

Ikkinchidan, oliv o'quv yurtidagi innovatsion jarayon ekologik muammoning yechimiga yo'naltirilishi, shaxs umumdundoqarash tayyorgarligiga asosiy o'rin ajratilishi lozim. Oliy o'quv yurtlari

FALSAFA

o'quv dasturlari tabiat va jamiyat munsobatlari predmetini yaxlit, tizimli ko'rishni, ekologik madaniyatni, ya'ni atrof muhitga ratsional munosabatda bo'lish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilishi hamda talabalarning bo'lajak kasbi bilan o'zaro bog'liqlik, ya'ni muayyan ekologik tayyorgarlikni ta'minlashi zarur.

Uchinchidan, ekologiya muammolarini tizimli anglashni shakllantirish gumanitar va jamiyatshunoslik fanlari vazifasiga kiradi. Chunki ekologik madaniyatni shakllantirish barcha ijtimoiy zaruriyatning uzviy aloqasini olib berishni taqozo qiladi. To'rtinchidan, maxsus fanlar tizimi ham ekologik muammolarni inson shuuriga bevosita singdirish imkoniyatlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Bunday mustaqil yondashuv, texnika sohasidagi fanlarning ekologiya bilan uzviy aloqasini kengaytirish, hamda ekologik bilim va ko'nikmalarni kasbiy malakaning bir qismiga aylantirish imkonini berardi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sون «O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni. <http://lex.uz>. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan". <http://lex.uz>.)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 4 oktyabr, PQ-4477-sон Qarori. (Resolution No. PQ-4477 of October 4, 2019 of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the strategy of the transition to the "green" economy of the Republic of Uzbekistan in the period 2019-2030".)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 25 avgust, № 173 (7131). (Speech of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the meeting of the Council of Leaders of the Founding States of the International Fund for Saving the Island, held in Turkmanbashi, Turkmenistan. People's Word newspaper, August 25, 2018, No. 173 (7131).)

4. Sivilizatsiya. Ekologiya. Chelovek. – Tashkent, 1998. S. 21–23. (3. Civilization. Ecology. Human. - Tashkent, 1998. S. 21-23.)

5. Насруллин А., Лесник А. Аральское море: гидромониторинг бассейна // Экологический вестник. – 1999. – № 4. С. 11.(4. Nasrullin A., Lesnik A. Aral Sea: hydromonitoring of the basin // Ecological Bulletin. - 1999. - No. 4. P. 11.)

6. Sessions, G. (ed). Deep Ecology for the Twenty-first Century.Boston: Shambhala, 1995

7. Кулабухов Д..А. Экология культуры: культурно-антропологические аспекты. Дис . канд. филос. наук. – Белгород, 2007. – 148 с.(Kulabukhov D..A. Ecology of culture: cultural and anthropological aspects. Dis. cand. philosophy Sciences. – Belgorod, 2007. – 148 p.)

8. Aymatov A. Shaxs tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda ekologik ongning roli. (DSc) diss..avtoreferati. Samarqand: 2019. – 29 b.

9. Qo'yiliyev T. Ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. –Toshkent.:TAQI, 2007. (Koylev T. Features of formation and development of ecological culture. -Tashkent.: TAKI, 2007)

10. Hakimov N.H.Inson ekologiyasi. Monografiya. Toshkent, Iqtisodiyot, 2021.B.232. (Hakimov N.H. Human ecology. Monograph. Tashkent, Economy, 2021.B.232.)

11. Маликов Т.Т. Диалектика формирования активной жизненной позиции личности // Общественные науки в Узбекистане. – 1992. – № 2. – С. 12–17.(Malikov T.T. Dialectic formation of active life position of personality // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. – 1992. – No. 2. – S. 12-17.)

12. Мамашакиров С. Урбанизация экологии или экологизированная урбанизация. – Ташкент: Фан, 1991. С. 11–32. (Mamashakirov S. Urbanization of ecology or ecologized urbanization. - Tashkent: Fan, 1991. S. 11-32.)

13. Базаров Б. Образование и экологическая безопасность // Экологический вестник. – 1999. №4. С. 5.(Bazarov B. Education and environmental safety // Ecological Bulletin. - 1999. No. 4. S. 5.)

14. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Chinor ENK" ekologiknashriyot kompaniyasi. 2006. (Tursunov H.T., Rakhimova T.U. Ecology. Study guide. -Tashkent: "Chinor ENK" ecological publishing company. 2006.)

15. Rasuleva Г. С позиций социобиологии. // Экологический вестник. Ташкен-1999. - № 5-б. - С. 31-33.(Rasuleva G. From the standpoint of sociobiology. // Ecological Bulletin. Tashkent-1999. - No. 5-b. - S. 31-33.)

16. <https://kun.uz/news/2019/10/25/ozbekiston-2030-yilgacha-yashil-qtisodiyotqa-otishni-rejalashtirmoqda>

17. <https://lex.uz/docs/4574008> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmoni. (<https://lex.uz/docs/4574008> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on approval of the concept of environmental protection of the Republic of Uzbekistan until 2030.)